


INDEKS 1072



EZGÚ FIKR, EZGÚ SO'Z, EZGÚ AMAL!

# ILM SARCHASHMALARI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING  
ILMIY-METODIK JURNALI



ISSN 2010-4246



2020-6

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

## ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

6.2020

научно-методический журнал  
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2020

қизил гилам, утталарда бўз кўрпалар кўрилган бўлса, мунда ипак ва адас кўрпалар, наригиларда қора чароғ сасиғанда, бу хужрада шамъ ёнадир, ўзга хужраларда енгил табиъатлик, серчақчақ кишилар бўлганида бу хужранинг эгаси бошқача яратилишда” (А.Қодирий. “Ўткан кунлар”). Ушбу матндаги *гилам – кигиз, бўз кўрпа – ипак ва адас кўрпалар, қора чароғ – шамъ* антиномиялари воқеликни яққол тасаввур қилишга, Отабек тимсолидаги айричаликнинг ижтимоий илдизларини очиб беришга қаратилган.

Уй-рўзғор буюмларининг лингвокультурологик хусусиятлари, ўзига хос миллийликни акс эттирувчи даражаси ҳақида сўз борар экан, белгиларнинг қуйидаги икки тури асосида таснифлаш ўринли деб ҳисоблаймиз: а) миллий-маданий маънога эга лексик қатлам; б) маданий компонентли маънога эга сўз.<sup>1</sup>

Қумғон – чой қайнатиш учун, кўпинча, мисдан ясаладиган, ичи қалай билан оқартирилган, кўзача шаклидаги дастали ва қопқокли идиш; катта чойдиш.<sup>2</sup> “Тойир ака қумғонни яна олов томонга итариб қўйди:

– Ҳозир дамлаймиз, тақсир, ҳозир” (А.Қодирий. “Меҳробдан чаён”, 92-бет). Айтиш мумкинки, қумғон сўзи миллий-маданий маънога эга лексик қатламга мансуб бўлиб, бу буюм асрлар давомида халқнинг ўзига хос турмуш тарзининг бир парчаси сифатида ишлатилиб келади.

Сандиқ (ар. кути, яшик, сандиқ) турли буюмларни, бисотларни солиб қўйишга мўлжалланган, очилиб-ёпиладиган қопқокли, қулф-калитли, яшик шаклидаги уй-рўзғор буюми.<sup>3</sup> Сандиқдан турли миллат вакиллари фойдаланадилар, лекин ўзбекларда унинг айрича хусусияти ҳам мавжуд. Худди мана шу хусусият лексеманинг маданий компонентли маънога эга сўз сифатида изоҳлашга имкон беради. А.Мирсаидов лексемаларнинг миллий-маданий ўзига хос тафовутларини ўрганар экан, *сандиқ* лексик бирлигини қуйидагича изоҳлайди: “Сандиқ, одатда, уй-рўзғор жиҳози ҳисобланади. Лекин қадимдан ўзбек халқи сандиқни уйнинг меҳробига жойлаштиради ва устига кўрпачақлар йиғиб қўяди. Бундан ташқари, ўзбек халқи расм-русумларига кўра, келиннинг ота-онаси келин куёв хонадонига кетаётган пайтда бериладиган “келин сепи” деб аталган турли уй-рўзғор анжомлари, кўрпачақлар қаторида сандиқ ҳам бўлади. Сандиқнинг мана шу қўшимча маънолари унинг маданий компонент маънолари ҳисобланади.<sup>4</sup>

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек халқининг миллий-маданий ўзига хос жиҳатларини тавсифлашда теварак-атрофдаги нарса-буюмлар, жой номлари, уй жиҳозлари, кийим, таомлар номлари, қариндош-уруғчиликка алоқадор сўзлар, миллий байрамлар, миллий чолғу асбоблари, миллий ўйинлар ва мулоқот шакллари ифодаловчи сўзлар қаторида уй-рўзғор буюмларини ифодаловчи миллий-маданий лексикани ўргатишга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ бўлади.

**Karimova Shaxnozaxon Karimovna (BuxDU Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasini o‘qituvchisi, E-mail:karimovashakhnoz@gmail.com), Nazarova Gulshod Xodjiyevna (BuxDU Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasini o‘qituvchisi)**

#### **VAQT MA’NOSINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR**

*Аннотация. Мақоллада ваqt birliklarining umumiy tasnifi va ularga oid ba’zi atamalarning inglizcha tarjimasida fikr yuritilgan. Maqola mualliflari vaqt birliklarining paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi, xususan, G‘arb va Sharq allomalarining asarlarida ham ular haqida misollar borligini bayon qilishgan. Jumladan, buyuk bobokalonimiz Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida biz so‘z yuritayotgan mavzu jihatidan tushunchalar ko‘pligi bois shu asardan misollar keltirishgan.*

*Аннотация. Статья посвящена общему описанию единиц времени и переводу отдельных терминов, относящихся к единицам времени и измерения. Авторы статьи объясняют возникновение и развития единиц времени, особенно в работах западных и восточных учёных. В частности, в работе “Бабурнома” нашего великого предка З.Бабура есть много примеров того, о чём мы говорим.*

<sup>1</sup> Мирсаидов А. Ўзбек тилидаги миллий-маданий лексик бирликларни инглиз тилига таржима муаммолари. Замонавий тилшунослик ва лингводидактиканинг коммуникатив аспекти. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Самарқанд, 2019.

<sup>2</sup> ЎТИЛ. 5-жилд, Т., 378-бет.

<sup>3</sup> ЎТИЛ. 3-жилд, Т., 439-бет.

<sup>4</sup> Мирсаидов А. Ўша жойда.

*Annotation.* The article is dedicated to general description of the units of time and to the translation of some terms related to them. The authors of the article explain the emergence and development of time units, especially in the works of Western and Eastern scholars. In particular, we gave examples from the work of our great ancestor Z. Bobur "Baburnoma", because of our great understanding of the topic we are talking about.

*Kalit so'zlar:* vaqt birliklari, ong kategoriyasi, vaqt sememasi, numerativlar, hayotiy (empirik), leksik birliklar, vaqt davomiyligi, leksemalar, statik va dinamik sistemalar, zamonaviy vaqt tushunchasi.

*Ключевые слова:* единицы времени, категория разума, семема время, нумеративы, жизненный (эмпирический), лексические единицы, континуиум время, лексемы, статические и динамические системы, понятие современного времени.

*Key words:* the units of time, the category of mind, the sememes of time, numberings, vital, lexical units, duration of time, lexemes, static and dynamic systems, the notion modern time.

**Kirish.** Kishilik jamiyati paydo bo'lgan ilk kunlardan boshlab, insonlar hayotida vaqt va o'lchov tushunchalari alohida ahamiyat kasb eta boshlagan. Ma'lumki, ilk davlatlar miloddan avvalgi 4–3-asrlarda Misr, Mesopotamiya hamda Hind vodiysida shakllanishni boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab vaqt va o'lchov birliklari haqidagi dastlabki tasavvurlar insonlarning kundalik ehtiyojlari asosida shakllana boshladi. Demak, bu tushunchalar ham insoniyat paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq jarayon bo'lib, qadim tarix va taraqqiyotga ega.

Har bir tushuncha o'zining rivojlanish, taraqqiy etish hamda ma'lum bir sistemaga aylanib qaror topish tarixiga ega. Va har bir mamlakatda bu jarayon o'sha xalqning siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy hayoti bilan bog'liq tarzda kechadi. Xususan, Angliyada amal qiladigan vaqt va o'lchov birliklarining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu mamlakatning Rim bosqiniga qadar bo'lgan o'lchov birliklari haqida juda kam ma'lumotlar mavjud.

1266–1303-yillar oralig'ida qabul qilingan "Yard va perchlar kompozitsiyasi" to'g'risidagi qonunga qadar Angliyada Anglo-Saksonlardan qolgan o'lchov birliklari amalda bo'lgan. Bu qonunda Anglo-Saksonlardan qolgan rod=5,03 metr saqlandi. Yard, fut va inch esa qayta belgilandi. Furlong 600 eski futdan 660 yangi futga o'zgardi. Akr esa 36,000 kvadrat futdan 43,560 kvadrat futga aylandi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur kompozitsiya Rim hamda Anglo-Sakson o'lchov birliklarining o'zaro moslashtirilgan shakliga asos soldi.<sup>1</sup>

Norman bosqini davomida esa Britaniyaning og'irlik va o'lchov tizimida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Ular o'lchov birliklari qatoriga yangi birlik – bushelni kiritishdi. Norman qiroli Villyam ham o'zining qonuniy aktlarining birida Britaniya hududida Anglo-Saksonlarning o'lchov birliklarini ma'qullashini ta'kidlab o'tgan.

Vaqt va o'lchov birliklarini tartibga solib, standartlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar davrlar mobaynida rivojlana bordi hamda ularga qonunan tus berishga harakat qilindi. Bu standartlar 1496, 1588 va 1758-yillarda qayta yangilandi. 1845-yilda esa "Belgilangan standart yard" qabul qilindi hamda u butun Britaniya imperiyasida amal qiladigan bo'ldi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan hamda ma'lum bir sistemaga ega bo'lgan vaqt birliklari mavjud. Xuddi shunday, Angliyada ham vaqtning eng kichik birligi sekund hisoblanib, qolgan barcha katta birliklar shundan kelib chiqib belgilanadi. Vaqt ma'nosini ifodalovchi bunday numerativ so'zlarni ma'nosiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Faslni ifodalovchi numerativlar. Ma'lumki, bir yilda to'rtta fasl bor.

Inglizlarda ham fasl ifodalovchi to'rtta birlik bo'lib, "winter"– qishni, "spring"– bahorni, "summer"– yozni hamda "autumn"– kuz faslini ifodalaydi.

2. Oyni ifodalovchi numerativlar. Har bir fasl uch oydan tashkil topgan bo'lib, jami o'n bo'lib, jami o'n ikkita oyni tashkil etadi. Bular: qish – December (dekabr), January (yanvar), February (fevral) oylaridan, bahor – March (mart), April (aprel), May (may) oylaridan, yoz – June (iyun), July (iyul), August (avgust) oylaridan, kuz esa September (sentabr), October (oktabr) hamda November (noyabr) oylaridan iborat.

3. Kunni ifodalovchi numerativlar.<sup>1</sup> Oylar hafta kunlariga bo'linadi. Ingliz tilida ham boshqa tillarda bo'lgani kabi yettita hafta kuni mavjud: Monday – dushanba, qadimgi ingliz tilidagi “Monan” so'zidan olingan bo'lib, asosi “moon”, ya'ni oy hisoblanadi.

Tuesday – seshanba, qadimgi ingliz tilidagi “Tiwes” so'zidan olingan bo'lib, Rimliklarning urush xudosi Mars yoki Normandlarning urush va g'alaba xudosi “Tew” yoxud “Tiu” sharafiga nomlangan.

Wednesday – chorshanba, qadimgi ingliz tilidagi “Wodnes” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, Anglo-Saksonlarning bosh xudosi Woden yoki Odin sharafiga nomlangan. Lotinlarning Merkuriy xudosi asoslanadi.

Thursday – payshanba, qadimgi ingliz tilidagi “Thor” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, germanlarning momoqaldiroq xudosi Thor sharafiga qo'yilgan. Lotinlarning Yupiter xudosi asoslanadi.

Friday – juma kuni bo'lib, qadimgi ingliz tilidagi “Frige” so'zidan kelib chiqqan. Germanlarning go'zallik va sevgi xudosi bo'lgan Frige xudosi nomiga atalgan bo'lib, lotinlarning Venus xudosi asoslangan.

Saturday – shanba kuni bo'lib, rimliklarning Saturn xudosi sharafiga shunday nomlangan.

Sunday – qadimgi ingliz tilidagi “Sunnan”, ya'ni quyosh so'zidan kelib chiqqan hisoblanadi.

4. Soat, minut, sekundni ifodalovchi numerativlar. Vaqtga aloqador birliklar sifatida second (sekund), minute (minut) va hour (soat) ishlatiladi. Soatning eng kichik birligi sekund bo'lib, 60 sekund 1 minutni, 60 minut esa 1 soatni tashkil etadi. Bir kun esa 24 soatdan iborat. Vaqt bilan bog'liq eng katta birlik – millennium bo'lib, u ming yillikni anglatadi. “Century” bir asrni ifodalasa, “decade” o'n yillikni bildiradi.

Ma'lumki, Sharq allomalarining asarlarida ham vaqt va o'lchov birliklarining tasnifi va misollari berilgan. Jumladan, M.Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy, Z.M.Bobur singari donishmandlarning asarlarida mazkur birliklarga xos terminlar qayd etilgan. Buyuk bobokalonimiz Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida biz so'z yuritayotgan mavzu jihatidan tushunchalar ko'pligi bois shu asardan misollar keltirishni joiz deb topdik.

“Boburnoma”da vaqt ma'nosini ifodalovchi numerativ so'zlar juda ko'p: asr, oy, yil, fasl, hafta kunlari, soat, minut, sekundni ifodalovchi pos, pahr, giri//gari, qismat, pul, daqiqa, namoz bilan bog'liq bo'lgan namozi shom, namozi peshin, namozi digar, bir sut pishimi ot minguncha fursat, qilich sug'ur-guncha fursat, tug'chi tug' bog'laguncha fursat va shu kabilardir. Vaqt ma'nosini ifodalovchi bunday numerativ so'zlar ma'nosiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Yil ifodalovchi numerativlarga asarda keltirilgan yil sanalarini keltirish mumkin. Masalan, Shaybonixon bilan Sulton Ali Mirzo voqeyasi quyidagi sanada o'z aksini topgan: Voqeyi sanai sitta va tisa mia 906 (1500 – 1501)-yil voqealari.<sup>2</sup>

2. Fasl ifodalovchi numerativlarga qish, zimiston, yoz, tobiston, kuz, pashkol, bahor. Fasl so'zi uch oyni anglatib, yilning to'rtidan bir bo'lagi ma'nosini anglatadi.<sup>3</sup> Hindistonda esa fasl to'rt oyni ifodalab, yilning uchdan bir bo'lagini bildiradi: Yana ul viloyatlarda to'rt fasltur. Hindistonda uch fasl bo'lur, to'rt oyi yozdur, to'rt oyi pashkol, to'rt oyi qish.

Pashqol so'zi ham faslni ifodalab, bunga yomg'irlik oylar kiradi.<sup>4</sup> Savan, bodun, quvor, pashqol: muvofiqi: saraton va asad va sunbula va mezon. Yana, Pashkol vaqtida pishadur. Bahor: Bahori bisyor yaxshi bo'lur. Pashovarning nahisida bahor vaqti yaxshi gulzorlar bulardir.

3. Oyni ifodalovchi numerativlar juda ko'p uchraydi: Bobur O'rta Osiyo oy nomlari bilan Hindistonda qo'llanilgan oy nomlarini chog'ishtiradi: chitar, baysok, jid, asor – hamal, hud, savr, javzo. Savan bodun kuvor kotik – saraton, asad, sunbula, mezon. Akhan, pus, moh, pogun – aqrab, qavs, jadiy dalv. Bulardan tashqari hijriy-qamariy yil oylari va hijriy-shamsiy yil oylari ham qo'llanilgan. Masalan, muharram, safar, hamal, safr, javzo va boshqalar.

4. Kunni ifodalovchi numerativlar. Bular shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, odina, char, aytvar, sumvar, mongalvar, budvor, brisspartvor, sukrvor. Hafta so'zi ham asarda ko'p qo'llanilgan: Keshga kelgandin bir - mirzo Samarqandni Shaybonixonga berdi. Bu misolda hafta so'zi son bilan birga kelib, 6–12 kun oralig'idagi vaqtini ifodalab kelgan.

<sup>1</sup> [www.Friesian.com/week.htm](http://www.Friesian.com/week.htm).

<sup>2</sup> Z.M.Bobur. Boburnoma. O'rta yoshdagi maktab bolalari uchun. “Yulduzcha”, 1989, 368-bet.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. Moskva, “Rus tili” nashriyoti, 1981, II tom, 37-bet.

<sup>4</sup> Cardarelli, Francois. Encyclopedia of scientific units, weights and measures. L., Springer, 2003.

5. Soat, minut, sekundini ifodalovchi numerativlar. Bunday numerativlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) aniq vaqtni ifodalovchi numerativlar pos, pahr, pul, soat, daqiqa, gari//gri, qismat va boshqalar orqali ifodalanadi;

b) taxminiy vaqtni bildiruvchi numerativlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vaqt semantikali leksemalarning matn shakllantirish imkoniyatlari ularning ma'no hajmiga bog'liq. Ko'p vaqt davomiyligini bildiruvchi leksemalarning matn shakllantirish imkoniyatlari katta bo'ladi, ya'ni ular ko'p vaqtda sodir bo'luvchi voqea-hodisalarni ifodalovchi ko'proq gaplarni biriktira oladi, aksincha. Vaqt o'lchov birliklaridan eng katta matn shakllantirish imkoniyatiga vaqt miqdori katta bo'lgan "millennium", "decade" hamda "century" so'zlarini keltirish mumkin. Bu leksemalar asosida trilogiya, yil leksemasi semantikasi ko'lamida roman, oy, yil, fasl, hafta leksemalari asosida qissa, hafta, sutka, kun, soat leksemalari mazmuni asosida hikoya yaratish mumkin.

**Кошева Дилрабо Худоёровна (НавДПИ Чет тиллар факультети ўқитувчиси)  
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ НУТҚ ФАОЛИЯТИ ИБОРАЛАРИ, УЛАРНИНГ  
ЭКВИВАЛЕНТИ ВА СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ**

*Аннотация. Ушбу мақолада инглиз ва ўзбек тилларидаги сўзлаш ҳаракати фразеологизмларнинг кичик чоғиштирма-семантик тадқиқи олиб борилган. Нутқ фаолияти ибораларининг таржимадаги муқобиллари контекстуал-семантик таҳлил этилган.*

*Аннотация. В данной статье предоставляется небольшое сопоставительно-типологическое исследование фразеологизмов речи в английском и русском языках. Альтернативы фразеологизмов речи в переводе анализируются с контекстуальной и семантической точек зрения.*

*Annotation. This article presents small-scale comparative-typological research into idiomatic expressions of speaking in the English and Uzbek languages, in which the alternatives of "speaking" idioms in translation have been contextually and semantically analyzed.*

*Калит сўзлар: фразеологизм, муқобил вариант, семантик таҳлил, ижобий маъно, халқ оғзаки ижоди.*

*Ключевые слова: фразеологизм, альтернатива, семантический анализ, положительное значение, фольклор.*

*Key words: idiom, equivalent, semantic analysis, positive connotation, folklore.*

Инглиз ва ўзбек тиллари халқ оғзаки ижодиёти жуда бой ва хилма-хил бўлиб, мақоллар, иборатли сўзлар ва иборалар бадиий-адабий ва кундалик сўзлашув услубининг ажралмас қисми ҳисобланади. Улар сўзловчининг нутқдан кўзланган мақсадини бор маъно нозикликлари билан таъсирчан ифодалашга хизмат қилади. Шунингдек, улар "чертиб, кесиб гапириш" ҳаракати билан боғланиб, нутқ таркибини конкретлаштиришда, мазмунни қисқа ва лўнда ифодалашда алоҳида аҳамият касб этади.

Фразеологик бирликларнинг семантик таркиби сўзникига нисбатан мураккаброқ табиатга эга.<sup>1</sup> Машхур лексиколог Х.Касарес ҳам "Модизмлар (фраземалар) маъносини кўп ҳолларда аниқ белгилаб бўлмади, бу маънони унинг ички моҳиятини изоҳлашга интилмасдан, қандай бўлса шундайлигича тушуниш лозим," деган эди.<sup>2</sup>

Қуйида аксарият фаол қўлланилиш доирасига эга фразеологизмларнинг инглиз ва ўзбек тилларидаги эквивалентларини, уларнинг ўзаро таржимаси ва семантик шарҳини ҳавола этамиз. Мисоллар "Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати"<sup>3</sup> ва "101 American English idioms"<sup>4</sup> манбаларидан келтирилган.

Let the Cat Out of the Bag.

We were planning on presenting him with some luggage at his retirement dinner. He wasn't supposed to know about it, but someone *let the cat out of the bag* (Нафақага чиқиш олди хайрлашув оқшомида унга тухфа қилишни режалаштиргандик. У буни билмаслиги лозим эди, аммо кимдир гуллаб

<sup>1</sup> Б.Йўлдошев. Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, 1998, 7-бет.

<sup>2</sup> Х.Касарес. Введение в современную лексикографию. Москва, 1958, стр. 79; 245.

<sup>3</sup> Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати, Тошкент, 1978.

<sup>4</sup> H.Collis. 101 American English idioms, the USA, 2007.